



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KAVSAR  
TURDIYEVA SHE'RLARINI TAHLIL QILISH ORQALI  
MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH**

**Abdusattorova Farangzbonu Azizjon qizi**

Qo'qon Davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 31- July 2023 yil  
Ma'qullandi: 05-August 2023 yil  
Nashr qilindi: 11-August 2023 yil

**KEY WORDS**

*Mustaqil fikrlash, barkamol shaxs, kompetensiya, satr, naqorat, misra, metod.*

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini Kavsar Turdiyeva she'rlarini tahlil qilish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, kelajakda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash haqida fikrlar bayon etilgan.*

Chinakam ijod namunalarigina o'quvchilarning onggi va tafakkuriga kuchli ta'sir eta olishi mumkin. Shunday ekan bu kabi asarlar o'zining tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, insonlarni ezgulik sari yetaklashi, bunyodkor g'oyalar targ'ib qilinishi bilan boshqa asarlardan ajralib turishi kerak. Bu xildagi she'rlar esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, atrofdagi bo'layotgan hodisalarni anglagan holda ulardan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi.

Xususan, bolalarga adabiyot namunalarini o'rganish uchun tashkil etilgan darslarda o'quvchilarga mustaqil fikrlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar muvaffaqiyat garovidir. O'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, barcha masalalarda qo'rqmasdan o'z fikrini bildira oladigan barkamol shaxslar qilib tarbiyalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, tafakkurning mustaqilligi bilim olishdagi mustaqillikka tayanadi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bilim olishimiz uchun esa kitoblar asosiy rol o'ynaydi. Kitob o'qish inson tafakkurining ozuqasidir bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ko'p bora o'z nutqlarida ta'kidlab kelmoqda. "Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanoat bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi..." shu nuqtai nazardan bugun kitob o'qishni targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga olib chiqilmoqda.

O'zbek bolalar adabiyotining iste'dodli vakili, serqirra ijodkor, bolalarning sevimli shoirasi Kavsar Turdiyeva asarlariga shu jihatdan nazar tashlasak bolalar ruhiy olamini ochib beradigan, ularni kitobga oshno etadigan, ajoyib, jozibador asarlar muallifi sifatida ko'ramiz. Uning asarlari yosh avlodni ezgulik, yaxshilik sari yetaklab ulardagi insoniylik tuyg'ularini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklariga sevimli shoirimiz Kavsar Turdiyevaning 6 ta she'ri kiritilgan. O'quvchilar 1-sinfda shoiraning "Raqamlar bo'ylab sayohat"; 2-sinfda esa "Mahalla - ota-ona", "Bu - bizning O'zbekiston", 3-sinfda

“Qarang mag‘rur tog‘larga”, “Bozor”, “Yaxshi do‘stlar bor ekan” kabi she‘rlarini o‘qib o‘rganadilar.

Qarang mag‘rur tog‘larga

Billur kokil yarashar,

Pastda o‘sha kokilin

Jilg‘achalar tarashar.

Ular oqar shildirab,

Shivir-shivir sirlashib,

Jilg‘achalar ketishar

Keng daryoga birlashib.

Baland, mag‘rur bu tog‘lar

Go‘yo uzun karvondir.

Quyoshjonni tepaga

Kuzatuvchi narvondir.

Kavsar Turdiyevaning “Qarang mag‘rur tog‘larga” she‘rini o‘qir ekanmiz tabiatning go‘zal tasviri ifodasiga guvoh bo‘lamiz va olamning bu ajib ko‘rinishi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki bolalar tasavvur olami kattalarga nisbatan kuchli bo‘ladi. She‘rdagi tasviriy ifodalarni ular ko‘z oldilariga keltirishib tabiatning go‘zal manzarasini eslashadi.

Qaysi yerning nonlari

Kiritadi jonlarni?

Minoralari baland,

Bu sayqali Samarqand .

Qayerning zardo‘zlari

Shirin-shakar so‘zlari?

Mashhurdir dunyo aro,

Budir qadim Buxoro .

“Bu – bizning O‘zbekiston” she‘rida yurtimizning qadim tarixga ega shahar va viloyatlarining nomi va ularning go‘zal sifatlari keltirilgan. Bu she‘r orqali o‘quvchilar vatanga muhabbat va yurtimizning ulkan tarixidan g‘ururlanish hissini tuyishadi.

Bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliliigi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izxor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi.

She‘r ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuygu ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi va qofiya misralarning oxirida keladigan ohangdosh sozlar hisoblanadi. She‘rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni she‘riy asarlar va lirik she‘rlar o‘qitiladi. She‘riy hikoya, she‘riy ertaklarda syujet, ya‘ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she‘r – biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi||. Lirik she‘rning xususiyati –kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta‘sirliroq ifodalashda qo‘l keladi||. She‘rni o‘qish darslarida asosiy ish turi ifodali o‘qish

hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Boshlang'ich adabiy ta'limda she'riy matnlar ustida ishlashda asosiy e'tibor uning ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq ekanligiga qaratiladi. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritim (bir-biriga monand kichik bolaklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralaming oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi. She'r o'qilganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga molik. Boshlang'ich sinflarda slier tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, va she'riy asarlar va lirik she'rlar ham o'rganiladi. She'riy hikoya, she'riy adabiy ertaklarda sujet, ya'ni voqealar tizimi va rivoji xarakterlidir.

Lirik she'r "biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati "kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi". She'r o'qish darslarida asosiy ish turlaridan biri matnni ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina uni ifodali o'qiy oladi. She'riy hikoyani tahlil qilishda hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llanadigan ish turlaridan foydalanish mumkin. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish esa o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan, yondashiladi. Bunday hollarda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmay qoladi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmay qoladilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadiga erishish mumkin emas. She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni ham zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, o'quvchilar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Har bir sinfda o'qilgan barcha asarlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani aks ettiradi. Bu boladagi mustaqil fikrlashga, nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar ifodali, obrazli, shuningdek qahramonlar harakatini to'g'ri bajarishlari, o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Po'lat Mo'min, Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva asarlari oquvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli

mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turilishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va axloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelgan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. . So'z o'quvchining ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgandagina unda zavq uyg'otadi bu bilan so'z insonni tarbiyalaydi ham. She'r his-tuyg'uni junbushga keltirib, faol estetik kechinmalar uchun zamin yaratadi, shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lmish e'tiqodga sayqal beradi. Oliyjanob xatti-harakatlarga otlantiradi. B. To'xlijev ham bu borada fikr yuritib: "Aslida adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan." - deydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bugun kitob olamiga oshno etib tarbiyalanayotgan bolalar hayotning oq qora ranglarini anglab yaxshilik va yomonlik tuyg'ularini odamiylikni anglashadi balki ular jamiyatda bo'layotgan ishlarga mustaqil fikr bildira oladigan yetuk shaxslar sifatida kamol topishadi. Fikrimizning dalili sifatida esa yurtboshimizning "bugun bitta kitob o'qiyotgan bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin" degan fikrlarini keltirib o'tamiz. Kavsar Turdiyeva asarlari ruhida tarbiyalangan bolalar hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan teran fikrli insonlar qatorida bo'lishadi. Uning namunali hayoti va boy ijodidan, unda ko'tarilgan g'oyalardan ibrat, saboq olish esa ham ilmiy ham ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 1-sinfi uchun darslik / I. Azimova [va boshq.] – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
4. Mamasahatova Sharofat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Anvar Obidjon she'rlarini tahlil qilish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish. Internet maqola. cyberleninka.ru.
5. To'xlijev B. Adabiyot o'qitish metodikasi (Oliy o'quv yurtlari filologiya talabalari uchun o'quv qo'llanma) – T.: "Yangi asr avlodi". 2006 – 7-b.